NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

# Salom! Bu Nordik!

Siz qaysi soha egasi bo'lmoqchisiz?
Iqtisodiyot, Biznesni boshqarish,
Sanoat muhandisligi va menejmenti,
Jurnalistika, Data science ...?

**Bizda kelajak sohalarining barchasi bor!**
**Nordik - sizga yo'l ochadigan platforma!**
**Akademik erkinlik, xalqaro tajriba, qulay ta'lim sizni kutmoqda!**

# XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

*Ta'limda mukammallik sari!*

Markaziy Osiyoda
ilm-fan, ta'lim va biznes
platformasi bo'lgan
xalqaro universitet









**Bog‘lanish uchun:**

+998(55)508-44-00

nordic_edu

www.nordicuniversity.org

Sebzor ko‘chasi 22A, 100043, Toshkent, Uzbekistan

**Bog‘lanish uchun:**

+998(55)508-44-00

nordic_edu

www.nordicuniversity.org

Chust ko‘chasi 17, Tashkent, Uzbekistan

# Ilmiy izlanishlaringizni yangi bosqichga olib chiqing!

**Nordikda oliy ta'limdan keyingi ta'lim – bu siz izlagan imkoniyat!**

**Doktorantura | Tayanch doktorantura | Mustaqil izlanuvchilik**
Ixtisosliklar:

| | |
|---|---|
| 08.00.03 | Sanoat iqtisodiyoti |
| 08.00.07 | Moliya, pul muomalasi va kredit |
| 08.00.13 | Menejment |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar tarixi |

## Siz uchun quyidagilarni taqdim etamiz:

- Ilmiy rahbarlik va tajribali mentorlar
- Xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyati
- Zamonaviy tadqiqot infratuzilmasi
- Nufuzli jurnallarda maqola chop etish ko'magi





**Ilm yo'lida professional darajaga chiqish istagidamisiz?**
**Nordik bilan yuksaling!**
**Nordik a'zosi bo'lish oson(mi)?**
**Albatta, oson!**

Ushbu QR kodni skanerlang!

Havolaga kirib, pasport va diplom ma'lumotlaringizni kiriting, sizni kutib olamiz!


Bog'lanish:

+998(55)508-44-00

www.nordicuniversity.org



©Xalqaro Nordik universiteti





Bugun orzu-maqsadlaringiz sari dadil qadam tashlaydigan, ertangi kuningizni ilm, tajriba va ishonch bilan quradigan palla keldi! Nordik universiteti sizni aynan shunday ilm safariga chorlaydi!
Nordik - bu:
— zamonaviy va xalqaro talablarga mos ta'lim dasturlari
— ikki tomonlama diplom imkoniyatlari
— 100% gacha grant va stipendiyalar
— O'zbekistondagi yetakchi professorlar va xorijiy mutaxassislar bilan ta'lim
— akademik va shaxsiy qo'llab-quvvatlovch tadqiqot va innovatsiyalar uchun keng maydondir.

Universitetimizda kasbiy rivojlanish, milliy qadriyatlar va turli madaniyatlar bilan uyg'unlashgan zamonaviy ta'lim muhiti ustuvor. O'qish davomida bilim ummoniga sho'ng'ish orqali nafaqat ilm va ma'rifat, balki yetakchi sohalarni yangi g'oyalar bilan ta'minlaydigan ilg'or mutaxassis, jamiyatning muhim bir bo'lagiga aylanib borasiz.

Nordikda ta'lim, dunyo yetakchilari bilan motivatsion uchrashuvlar yuksakroq kelajakka qarash imkonini beradi!
Qadrli yoshlar!
Universitet Sizlarga dolzarb ahamiyatli, shu bilan birga kelajakdagi muammo va masalalarni hal qilishga tayyorlovchi bilimlarni berishni maqsad qilgan. Biz bilan orttirgan ko'nikma va tajribangiz Sizga nafaqat professional ustunlik beradi, balki xalqaro mehnat bozorida o'z o'rningizni egallashda qo'l keladi.
Yodda tutingki, kelajakni aynan Siz yaratasiz! Nordik esa ilm va tajriba orqali o'z yo'lingizni shakllantirish va kelajakda global fikrlash, jamiyatga asosiy tayanch bo'luvchi kuchga aylanishda har jihatdan ko'makchidir!

**Sherzod Mustafakulov**

Xalqaro Nordik universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor




# Nima uchun Nordik?

“Nordic” Shimoliy Yevropa davlatlari va ularning madaniyatiga tegishli tushunchani ifodalaydi. Bu atama yuqori hayot sifati, ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanish modeli bilan dunyoga namuna bo‘lib kelayotgan Skandinaviya mamlakatlari – Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Finlandiya va Islandiya kabi davlatlarni o‘z ichiga oladi. Bu mamlakatlar guruhi nomini Xalqaro Nordik universiteti faxr bilan tilga oladi!

Universitet tarixi: 2022-yilning 27-may kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston-Finlyandiya tashqi ishlar vazirlarining siyosiy maslahatlar bo‘yicha 10-yig‘ilishida Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta’lim sohasidagi ilg‘or yutuqlariga asoslangan zamonaviy xususiy oliy ta’lim tashkiloti – Xalqaro Nordik Universitetini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Muhim ochilish: 2022-yil 8-avgustda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasining №034528 raqamli litsenziyasi asosida o‘z faoliyatini boshladi!

Universitet zamonaviy moliyaviy, iqtisodiy modellar, ma’lumotlar ilmi, sanoat, IT, jurnalistika va ta’limga oid bilimlar berish, analitik fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ixtisoslashgan.

Xalqaro Nordik universitetining barcha resurslari – professor-o‘qituvchilar, kutubxonalar, auditoriya va tadqiqot markazlari talabalarning muvaffaqiyatga erishishi uchun mo‘ljallangan. Bu yerda nafaqat nazariy bilimlar, balki hayotiy, kasbiy ko‘nikmalar, yangi g‘oyalar va qimmatli tajribalarni qo‘lga kiritasiz!

# Exchange imkoniyatlarimiz bilan tanishing!

Rowan University · Karelia University of Applied Sciences · 대구대학교 Daegu University · University of Trento · UUM Universiti Utara Malaysia · Lawrence Technological University

### Talaba almashish imkoniyati bo‘lgan BAKALAVRIAT yo‘nalishlarimiz:

| | | |
|---|---|---|
| Kompyuter injiniringi | ⟷ | Rovan, Kareliya, Lourens universitetlari |
| Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar | ⟷ | Rovan, Kareliya, Lourens universitetlari |
| Biznesni boshqarish | ⟷ | Rovan, Kareliya, Lourens universitetlari |
| Sanoat muhandisligi va menejmenti | ⟷ | Rovan, Kareliya, Lourens universitetlari |
| Iqtisodiyot | ⟷ | Rovan, Kareliya, Degu, Lourens universitetlari |
| Moliya va moliyaviy texnologiyalar | ⟷ | Rovan, Kareliya, Lourens universitetlari |
| Psixologiya | ⟷ | Lourens universiteti |
| Amaliy matematika | ⟷ | Rovan universiteti |
| Jurnalistika | ⟷ | Lourens universiteti |

### Talaba almashish imkoniyati bo‘lgan MAGISTRATURA mutaxassisliklarimiz:

| | | |
|---|---|---|
| Jahon iqtisodiyoti | ⟷ | Lourens universiteti |
| Iqtisodiyot | ⟷ | Lourens universiteti |
| Kompyuter injiniringi | ⟷ | Rovan va Lourens universitetlari |
| Ma'lumotlar ilmi (Data science) | ⟷ | Rovan va Lourens universitetlari |









# Qanday ta’lim xizmatlari bor?

Eng zamonaviy, dolzarb va mehnat bozori talablariga mos yo‘nalishlar va mutaxassisliklar aynan Nordikda: Barchasi Siz uchun - turdoshini tanlang!
Akademik erkinlik, xalqaro tajriba, qulay ta’lim sizni kutmoqda! O‘qishni kechiktirmang!



## Bakalavriat yo‘nalishlari:

| | |
|---|---|
| 60410100 | Iqtisodiyot |
| 60410500 | Moliya va moliyaviy texnologiyalar |
| 60411100 | Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar |
| 60712200 | Sanoat muhandisligi va menejmenti |
| 60410900 | Biznesni boshqarish |
| 60110400 | Boshlang'ich ta'lim |
| 60110200 | Maktabgacha ta'lim |
| 60110300 | Maxsus pedagogika |
| 60110600 | Musiqa ta’limi |
| 60310300 | Psixologiya |
| 60110900 | Xorijiy til va adabiyoti |
| 60610300 | Kompyuter injiniringi |
| 60320100 | Jurnalistika |
| 60220300 | Tarix |
| 60540200 | Amaliy matematika |



## Magistratura mutaxassisliklari:

| | |
|---|---|
| 70110102 | Pedagogika |
| 70110401 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi* |
| 70110201 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi** |
| 70411101 | Jahon iqtisodiyoti |
| 70410102 | Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |
| 70110601 | Musiqa ta’limi va san’at |
| 70110901 | Xorijiy til va adabiyoti |
| 70320101 | Jurnalistika |
| 70540201 | Amaliy matematika |
| 70610301 | Kompyuter injiniringi |
| 70610304 | Ma’lumotlar ilmi (Data science) |
| 71010101 | Turizm va mehmondo‘stlik |
| 70310301 | Psixologiya |

* boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi uchun
** maktabgacha ta’lim yo‘nalishi uchun

# Strategik yo‘nalishlar:



### 1. Xalqaro standartlarga mos ta’lim

Darslar Finlyandiya, AQSh, Koreya kabi ilg‘or ta’lim tizimlariga asoslangan.
O‘quv dasturlarida CLIL (Content and Language Integrated Learning), STEAM yondashuvlari, innovatsion texnologiyalar qo‘llaniladi

### 2. Hamkorlik va akademik almashinuv

Yevropa va Osiyodagi eng yetakchi universitetlar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.
Talabalar va o‘qituvchilar uchun Work & Travel, Double Degree, Erasmus+ kabi dasturlar orqali xalqaro tajriba olish imkoniyatlari mavjud.





### 3. Innovatsiya va tadqiqotga tayangan rivojlanish

Talabalar va o‘qituvchilar uchun ilmiy loyihalar, startaplar, grantlar taklif etilmoqda.
Raqamli ta’lim, sun’iy intellekt, ijtimoiy innovatsiyalar kabi sohalarda izchil rivojlanmoqda.

### 4. Ijtimoiy faollik va yetakchilikni rag‘batlantirish

Talabalar o‘z o‘zini boshqarish Klublari va ko‘ngilli faoliyat, tadbirlar, tanlovlar orqali talabalar yetakchilik, jamoaviy ish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.





### 5. Ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligi

Har bir talabaga individual yondashuv, murabbiylik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud.




- **Nordik Universiteti** – bu tashabbuskor va global fikr yurituvchi yoshlar makoni.
- **Bizning missiyamiz** – global bilim, innovatsiya va yetakchilik sari yo'l ochish. Zamonaviy moliyaviy, pedagogik bilimlar, innovatsion fikrlash, tadqiqot, ilm va ko'nikmalar orqali talabalarni kelajak yetakchilariga aylantirish.
- **Maqsadimiz** - zamonaviy, ochiq, ilg'or va xalqaro miqyosda tan olingan ta'lim va tadqiqot muhitini yaratish.
- **Asosiy vazifasimiz** – raqobatbardosh bilimlar va amaliy ko'nikmalarni berish orqali ijtimoiy mas'uliyatli, ijodkor va tashabbuskor yosh yetakchilarni tayyorlash.
- **Tamoyilimiz** - "O'rgatish emas, ilhomlantirish"!

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

**Nordik – poytaxtdagi 3 ta kampusida O'zbekistonning 14 ta hududi va qo'shni davlatlardan kelgan iqtidorli talabalarni birlashtiradi.**




**Xalqaro Nordik universiteti Asosiy kampus**
Sebzor ko'chasi, 22A uy, 100043 — **1**

**Xalqaro Nordik maktabi Asosiy kampus**
Bunyodkor ko'chasi, 8/2-uy, 100115 — **2**

**Rowan universitetining Toshkent shahridagi markazi**
Chust ko'chasi, 17 uy, 100077 — **3**